

SHAVKAT RAHMON G‘OYAVIY-ESTETIK QARASHLARI

Aliyeva Orzigul Zokir qizi

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,

E-mail: [orzigulaliyeva798@gmail.com](mailto:orzigulaliyeva798@gmail.com)

*Annotatsiya:* XX asrning 70-80-yillari she‘riyati obrazlarga boyligi, uslubi rang-barang shoirlar ijod qilgani bilan boshqa davrlardan farq qiladi. Bu shoirlar orasida Shavkat Rahmon she‘riyati alohida ajralib turadi. Shavkat Rahmon she‘rlarida ijtimoiy masalalarni ham jonsiz tabiat orqali ochib berish kuzatiladi. Shoir bevosita tabiat hodisalari orqali ham insoniyat yuragining tub-tubidagi yaralarni ochib tashlaydi.

*Kalit so‘zlar:* she‘riyat, istehzo, lirik qahramon, ijodkor, erk.

Shavkat Rahmon iste‘dodli, imoni but, vatanparvar shoir edi. U shoirlik ilohiy ne‘mat ekanini bir umr anglab, unga amal qilib yashadi va bu haqiqatni she‘riyati orqali insoniyatga uqtirishni burch deb bildi. Bu vazifani uddaladi ham. Shavkat Rahmon shoirlik kasb-hunar, mavqe, obro‘ keltiruvchi manba emasligini, shoirlik mas‘uliyat, el-yurt oldidagi farz, Allohning inoyati ekanini chuqur idrok qilardi. Shu sababdan ijodi va hayoti bir xil edi, ba‘zi ijodkorlar kabi so‘zi va amali boshqa-boshqa emasdi:

*Rubobiy she‘r yozsam,*

*qaytsam bir nafas.*

*Hamisha musaffo chashmani ko‘rsam,*

*Qoraygan cho‘qqilar qoriga qarab,*

*Bir nafas xayolchan o‘smirga do‘nsam.<sup>1</sup>*

U “rubobiy” she‘rlar yozaman deb she‘riyatga kirib kelgan edi. Shunday she‘rlar yozdi ham. Faqat elining erksiz, Vatanining qaram ekanligi shoirni ijtimoiy mavzularda og‘riqli she‘rlar yozishga undadi. Bu haqda o‘zi ham o‘kinib yozdi:

*Qaysi bir dunyoga buncha og‘rindim,*

*Dilinni qaritdi besamar janglar.*

*Men jangchi emasdim*

*Men shoir edim,*

*Nihoyat shoirdan ko‘ra zobitman.<sup>2</sup>*

<sup>1</sup>. Shavkat Rahmon. Saylanma. – Toshkent: Sharq NMK, 1997. – 384 b.



Shoir rohatlanib ruhiyati go‘zalliklarini ifodalamoqchi edi. Ammo erk uchun, Vatan mustaqilligi uchun kurash maydoniga otilgan Shavkat Rahmon o‘zi ta’kidlagani kabi zobitga aylandi. Shoir “musulmon millatim dedim”, – deya yozar ekan, “imonli el” ma’nosini nazarda tutadi. “Haromni xush ko‘rgan maslakfurushlar”ga yuzma-yuz bo‘lar ekan, “zig‘irday himmatini minnat qilgan”larga qarab hayron shoir “buyuk urushda yaproqday sarg‘ayadi”. Shoir ijodida Vatan mavzusi erk mavzusi kabi yetakchi mavzu sanadi

Shoir Vatani erksiz, qaram ekanini aks ettirdi. Uning Vatanida “Boltalarning bo‘g‘iq zarbasi” doimiy eshitiladi. Bu yerda dushman borligini shoir qo‘rqmay ta’kidlaydi. Sho‘ro davrida bunday she‘rlar yozish uchun tog‘day yurak kerak edi. Va Shavkat Rahmonda shunday yurak, jasorat mujassam edi. Dushmanning boltalari shunday o‘tkir, shay, shunday bahaybatki, “Bir lahza Yerga qo‘ngan bahaybat qushlar”ni o‘ldirishga ulguradi, shunday shiddati, kuchi bor. Oddiy tasvirday tuyuladigan she‘rda kuchli ijtimoiy voqelik ifodasi bor. Shunday she‘rlar mustaqillikning g‘alaba qilishiga yo‘l ochdi. Shu sabab shoirning ijodi ulug‘ ahamiyatga molikdir. Aslida Shavkat Rahmon jahon shoiri deyishga loyiq tarzda iste’dodli edi. Shu sabab bo‘lsa kerak, shoir Vatan obrazini yaratar ekan, goho butun zaminni Vatan deb bildi. “Kuzgi yer ko‘rinishi” she‘rini o‘qib, shoirning holatini his qilasiz: Kuz. Xazon. Hosili yig‘ilgan yerda sarg‘aygan maysalarga bag‘rini berib yotgan lirik qahramon kuzakning parchasi go‘yo. Shoir kuzning oddiy manzarasi orqali mungli, ayni damda, umuminsoniy bir fikrni shuuridan o‘tkazadi:

*Nogoh sado keldi,  
Qalbing qa‘ridan:  
Intizor turibdi poyonsiz olam,  
Maysamni hidlama,  
Ichma suvimni,  
Sarg‘aygan bag‘rimda yotmagin, bolam.<sup>3</sup>*

Bu Yerning o‘tinchi. Bu o‘tinchni she‘rxonga yetkazishdan oldin shoir yerni shunday ta’riflaydi: “Qurigan bahaybat yaproqdir yerim”, “giyohvand yerim”. Lirik qahramon dorilardan zaharlangan ona tuprog‘ining giyohvand holga kelganini aytish bilan O‘zbekiston yerlarining 70-80-yillardagi ahvoliga ishora qiladi. Lirik qahramon ona tuproq “bag‘riga bag‘rini berib”, “jannatiy giyohlarni, rang-barang chechaklar, qushlar, sitoralar, saratonlarni” xotirlab yotganida yer qalbi qa‘ridan sado keladi. Yer “sarg‘aygan bag‘rimda yotma” desa ham lirik qahramon – yerning “o‘jar bolasi”, “osmonga yetmasdan yer bag‘riga gup etib tushgan nolasi” ona

<sup>3</sup> Keltirilgan asar, 373-bet



tuproqdan ketib bo‘lmasligini aytadi. Lirik qahramonning o‘g‘li uning bag‘riga kelib yotadi. “Dunyolar go‘zal, kimsasiz bag‘rimda yotmagin” deb o‘g‘liga aytsada, o‘g‘li o‘zidan ham o‘jar, u otasining bag‘riga qattiqroq yopishadi:

*Yotibmiz,  
yerimning qoq o‘rtasida,  
yotibmiz yerimning parchalariday,  
tinimsiz chorlasa hamki yulduzlar –  
o‘zga dunyolarning darichalari...*

Dunyo dialektikasini chuqur anglagan shoirgina shunday yoza oladi. Vatanini yurakdan sevgan shoirgina shunday satrlarni bitadi. Shavkat Rahmon ruhi ozod, dili obod shoir edi. Ammo erksiz yashayotgan elining dardi isyonga chorlar, shu isyon she‘riyatiga ko‘chgan, isyonkor she‘riyati xalqimizni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishga xizmat qila olgan edi.

Adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov shunday yozadi: “Shavkat she‘rlarida Kun va Tun, Nur va Zulmat, Ziyo va Qorong‘ilik obrazlari ko‘p uchraydi. Bular mavhum romantik obrazlar emas, balki real hayotiy mazmunga to‘la obrazlardir”. Bu obrazlar, avvalo, shoir obrazi ko‘magida reallashgan. Shavkat Rahmon she‘riyatida shoir obrazi keng qo‘llangan. Bunga sabab ham bor.

*Ko‘ksingdagi Muqqana bilan  
O‘zligingga qaradingmi, ayt?  
Musht zarurroq bo‘lgan mahalda  
Yozding go‘zal she‘rlarni faqat<sup>4</sup>.*

Lirik qahramon – shoir. Uning ko‘ksida Muqanna bor. Muqanna dushmanga isyon qilgan, erk istagan qahramon. Bu obraz orqali shoir o‘zini tanqid qilmoqda. Keyingi satrlarda bu aniq ifodalangan. Shavkat Rahmon so‘zi o‘ziga, o‘zi so‘ziga monand shoir ekanini uning ijodi haqida yozgan har bir tadqiqotchi ta’kidlaydi. Aslida shoir ijodi haqida yozganlar anchagina-yu, tadqiqot olib borganlar kam. “Shavkat Rahmonni xotirlab” kitobida shoirlar, jurnalistlar, noshirlarning xotiralari, yodnomalari, shuningdek, Bahodir Karim, Ulug‘bek Hamdam singari olimlarning o‘ziga xos tahlillari bor. Shoirning shaxsi va ijodida mutanosiblik borligi haqida tadqiqotchi Nurulloh Muhammad Raufxon yozadi: “Shavkat Rahmonni umrida ko‘rmagan kishi she‘rlarida uning ichki va tashqi suratini osongina chiza oladi. Ishoning, ikki tomchi suvday bir xil chiqadi, g‘irt o‘xshaydi, qo‘yib qo‘yganday o‘zi bo‘ladi! Men Shavkat Rahmonning shaxsiyatini ham, she‘riyatini ham shuning uchun yaxshi ko‘raman”. Ko‘rinadiki, shoirning yetuk fazilatlariga ega ekanini, vatanparvarligini hamma e’tirof qilgan.

<sup>4</sup> Keltirilgan asar, 92-bet.



XX asrning 70-80-yillari she'riyati obrazlarga boyligi, uslubi rang-barang shoirlar ijod qilgani bilan boshqa davrlardan farq qiladi. Bu shoirlar orasida Shavkat Rahmon she'riyati alohida ajralib turadi. Adabiyotshunos Bahodir Karim o'z maqolasida Shavkat Rahmon she'riyatiga ta'rif berar ekan, shunday izohlaydi: “Shavkat Rahmon qisqa umr ko'rdi. Ammo undan “O'zbekning qorako'z bolalariga” olmosday keskir, tog'dek mustahkam, har biri yuzta umriga yetadigan ezgu, boqiy va o'tkir so'z qoldi”. Shoir she'riyati obrazlar olami haqida fikr yuritsak, ijobiy obraz sifatida Vatan, el, erk, tog', daraxt, atirgul kabilarni sanash mumkin. Salbiy obrazlar qatoriga diqqat qiling: soya, qora ayoz, O'lmas Koshshay, yovuz devlar, fitnachi. Ko'rinadiki, shoir ijodidagi aksariyat obrazlar ramziylik kasb etadi. Shavkat Rahmon ijodidagi obrazlarni shartli tarzda tasniflash mumkin:

1. Tarixiy va zamonaviy obrazlar.
2. Afsonaviy-mifologik obrazlar.
3. An'anaviy obrazlar.
4. Ramziy obrazlar.

Shavkat Rahmonning tashbehlari takrorlanmas darajada o'ziga xosdir. U aytmoqchi bo'lgan fikrini goh tashbehlar ortiga yashirsa, goh o'xshatishlardan so'ng kutilmagan fikrni aytib qoladi.

Shoir tarixiy voqealarga ishora qilib, talmeh ko'magida lirik qahramon holatini ifoda etadi. Uning birgina she'rini anglash uchun dunyo tarixining qat-qatlarini anglash kerak bo'ladi. “Venetsiya” she'ri shoirning dunyo tarixini, jahon adabiyotini sinchiklab o'rganganini ko'rsatadi. Uning she'ri shunchaki o'qilmasligi, ham tafakkurni, ham ruhiyatni tarbiyat etadigan she'rlar ekanini e'tirof etish lozim. “Venetsiya” she'rida “Troya, tarteslar, atlantidalar”, “Mikena” kabi tarixiy, afsonaviy joylar, voqealar, shaxslarga ishoralar bor. Ular orqali shoir dunyoning o'tkinchi ekanini, XX asr tarixga aylanib borayotganini aks ettiradi va insoniyat fojialarini oshkor qiladi. Xulosada shoir o'zining ochiqib borayotgan yuragini emas, muqaddas hislarni, odamzod yuragini o'ylayotganligini oshkor qiladi:

*O'tinaman, asr!*

*Achinma menga,*

*O'ylagin qismatlar nihoyasini.*

*Xalos et yillarning g'ubori ko'mgan,*

*Odamzod qalbining troyasini!*<sup>5</sup>

Shoir go'yo tinch hayot tasvirini so'z yordamida chizadi. “Bo'lmaganday hech qachon urush”, “qoraxat kelmay qo'ygan”, baxtli hayot davom etmoqda:

Shavkat Rahmon she'rlarida ijtimoiy masalalarni ham jonsiz tabiat orqali ochib berish kuzatiladi. Shoir bevosita tabiat hodisalari orqali ham insoniyat yuragining

<sup>5</sup>“Abadiyat oralab”, 30-bet



tub-tubidagi yaralarni ochib tashlaydi. Shoirning “Nur”deya nomlangan she’rida ham aynan shu holatning guvohi bo‘lishimiz mumkin.

*Koinotning sovuq qa’ridan  
Kelar bizdan xabar olgani,  
Kelar cheksiz borliqda kezgan  
So‘qir yerda mangu qolgani....<sup>6</sup>*

Haqiqiy nazm nafaqat emotsionallikni, balki keng dunyoqarash va kuchli bilimni ham talab etadi. Aks holda bunday she’riyat mukammallik sifatidan yiroq bo‘ladi. Ijodkor o‘z tashbehlarining tabiiyligini, hayotiyiligini ta’minlamoqchi bo‘lsa, kuzatuvchan, tafakkur doirasi keng bo‘lishi lozim. Shundagina u yaratgan misralar yolg‘ondan yiroq, o‘qiganda o‘quvchining ensasini qotirmaydigan bo‘ladi. Shavkat Rahmonning shaxsi va she’rlari bir-biriga monanddir. Bunday hol aslida kam uchraydi. Hatto tabiatning eng go‘zal manzaralari ilhom lahzalari bilan birga chizilsa-da, shoir shu tasvirlar orqali ham el dardini ifoda etadi:

*Lazzat bor har qanday og‘riqda,  
Kechalar og‘riqdan ingrab yotaman  
Va o‘sha og‘riqni beg‘am, bo‘g‘riqqan  
Og‘riqsiz yuzlarga otaman...<sup>7</sup>*

Shoir faqat so‘zda keskin, achchiq haqiqatni pardalamay ochiq aytadi va u hayotda ham shunday yashadi, ehtimolki, yuragini ayamagani uchun bor-yo‘g‘i 46 yil yashagandir. Uning she’riyatida jonsiz narsalar jonlantiriladi. Ammo shaxslar umumdunyoviy darajaga ko‘tarilib, manzili Zamin sifatida ifoda etiladi. E’tibor qilsangiz, yuqoridagi satrlarda og‘riq obraz darajasiga ko‘tarilgan. Lirik qahramon esa – Odam. Bu odamning millati, dini ta’kid etilmagan. Ammo har doim ham shunday emas. Shoir qahramonlari ikki xil: o‘zbek va Odam. Keragida shoir lirik qahramonni ochiq-oshkor ifodalaydi, tazyiqlardan qo‘rqib o‘tirmaydi. Orol qurib borayotganda pinagi buzilmaganlarga XX asrning oxirlarida shunday yozib ulgurdi:

*Bo‘ldi, nos chekarlar,  
Rahbar so‘zlaydi,  
Og‘zingni chaygin-u, Orolga tupur,  
Sen ham, ey namozxon, ol-da ko‘zani,  
Tahorat olgani Orolga yugur.*

Shoirning hajv tig‘i juda o‘tkir, ammo hajvida yumor yo‘q hisobi, keskin satira bor. Obrazlaridagi salbiylik yurakka sanchilguday ignali. So‘zlardagi yuk og‘irdan-og‘ir. She’riyatning nafis bag‘riga botguday tikanli. Bu shoirning aybi emas .

<sup>6</sup>“Abadiyat oralab”, 35-bet

<sup>7</sup>“Abadiyat oralab”, 175-bet



**Foydalanilgan adabiyotlat ro‘yxati:**

1. Shavkat Rahmon. Saylanma. – Toshkent: Sharq NMK, 1997. – 384 b.
2. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. – Toshkent: Movarounnahr, 2012.
3. Shirinova A. Shavkat Rahmon she‘riyati obrazlar ko‘lami // “Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. 2020-yil 24-26-dekabr. – Toshkent: TURON-IQBOL, 2021. – B.247-250.
4. Shirinova A. Shavkat Rahmon she‘r va shoirlik haqida // “Yangi O‘zbekistonda ilm-fan va ta‘lim” jurnali, 2021-yil 20-may. №3-son. – B.120-124. 3.8. Shavkat Rahmon. Uyg‘oq tog‘lar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at, 1986. – B. 47.